

Date: 29<sup>th</sup> April-2026

**AXBOROTLASHGAN ZAMONAVIY DAVRIDA YOSHLAR MA'NAVIYATINI  
HIMOYA QILISH**

**Avazova Xushro'ybibi Kamoltdin qizi**

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan sharoitda yoshlar ma'naviy dunyosiga turli axborot oqimlarining ta'siri hamda tez tarqalayotgan g'oyalarning yoshlar dunyoqarashiga ko'rsatadigan ta'siri o'rganilib, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarining oldini olish masalalari muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** globallashuv jarayoni, axborot oqimlari, yoshlar dunyoqarashi, ma'naviy muhit, zararli ta'sirlar, ijtimoiy ong, ta'lim-tarbiya tizimi, sog'lom muhit, mafkuraviy himoya, barkamol avlod

**Аннотация:** В данной статье рассматривается влияние различных информационных потоков на духовный мир молодежи в условиях ускорения процессов глобализации, а также влияние быстро распространяющихся идей на мировоззрение молодежи и обсуждаются вопросы предотвращения возможных негативных последствий.

**Ключевые слова:** глобализация, информационные потоки, мировоззрение молодежи, духовная среда, негативное воздействие, общественное сознание, система образования и воспитания, здоровая среда, идеологическая защита, гармонично развитое поколение.

**Abstract:** This article examines the impact of various information flows on the spiritual world of young people in the context of accelerating globalization processes, as well as the impact of rapidly spreading ideas on the worldview of young people, and discusses the issues of preventing possible negative consequences.

**Keywords:** globalization, information flows, youth worldview, spiritual environment, negative impacts, social consciousness, education and upbringing system, healthy environment, ideological protection, well-rounded generation.

Hozirgi vaqtda globallashuv jarayonlari va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida inson hayotining barcha jabhalarida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi axborot almashinuvini osonlashtirish bilan birga, turli xil g'oya va qarashlarning tezkor tarqalishiga ham zamin yaratmoqda. Bunday sharoitda yoshlar eng faol axborot iste'molchilari sifatida turli tashqi ta'sirlarga ko'proq duch kelishmoqda, shu bois, axborot ta'siri kuchaygan davrda yoshlar ma'naviyatini himoya qilish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Mazkur mavzu nafaqat ijtimoiy, balki ma'naviy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy axborot makonining kengayishi natijasida inson ongiga ta'sir ko'rsatish usullari tobora takomillashib bormoqda, negaki axborot ta'siri deganda turli manbalar



Date: 29<sup>th</sup> April-2026



orqali maqsadli ravishda ongga bevosita ta'sir etuvchi, ma'lum bir qarash yoki g'oyani singdirishga qaratilgan axborotlar tushuniladi. Bunday axborotlar ochiq yoki yashirin shaklda tarqalib, yoshlarning fikrlashi, qadriyatlar va hayotga bo'lgan munosabatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda yurtimizda ham yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanish kuzatilmoqda. Ayrim hollarda turli platformalarda tarqatilayotgan asossiz yoki tekshirilmagan ma'lumotlar yoshlar ongiga salbiy ta'siri borligini barchamiz bilamiz, ushbu masalaga misol tariqasida shuni aytsak bo'ladi "ba'zi yoshlar internetda ko'rgan turli "trend" va shu kabi narsalarga o'ylamasdan ergashib, o'z milliy qadriyatlariga zid bo'lgan xatti-harakatlarni namoyon etayotgan holatlar va o'zbek madaniyatiga to'g'ri kelmaydigan videolarni bevosita ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirishmoqda " bu esa ayrim yoshlarning vaqtini asosan foydasiz kontentlar bilan o'tkazishi, ularning bilim olishga va o'z ustida ishlashga bo'lgan qiziqishini pasaytirayotganini ham kuzatish mumkin. Natijada esa kelajakda ularning ma'naviy va intellektual rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi Biroq yurtimizda bu borada ijobiy ishlar ham amalga oshirilmoqda. Jumladan, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularni turli zararli axborotlardan himoya qilish maqsadida ta'lim muassasalarida targ'ibot ishlari olib borilmoqda hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda. Yoshlarni kitobxonlikka jalb etish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish orqali sog'lom axborot muhitini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarda axborotga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish muhimdir. Ya'ni, ular har qanday ma'lumotni qabul qilishdan oldin uning manbasi, ishonchliligi va maqsadini tahlil qila olishi lozim. Bu esa yoshlarni nafaqat zararli axborotlardan himoya qiladi, balki ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi. Jamiyatda sog'lom axborot muhitini yaratish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari va ota-onalar hamkorligida yoshlar uchun foydali, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan kontentlarni ko'paytirish zarur. Shu orqali yoshlarning e'tiborini ijobiy va rivojlantiruvchi axborotlarga yo'naltirish mumkin bo'ladi.

Axborot xuruji davrida yoshlar ma'naviyatini himoya qilish bugungi kunning eng muhim va dolzarb vazifalardan biridir. Chunki yoshlar jamiyatning kelajagi bo'lib, ularning ma'naviy yetukligi mamlakat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Turli axborot oqimlari sharoitida yoshlarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularni zararli g'oyalardan asrash va sog'lom axborot muhitini shakllantirish muhim hisoblanadi. Bunda oila, ta'lim muassasalari hamda jamiyat asosiy o'rin tutadi. Shunday ekan, har bir yosh o'z ma'naviy dunyosini asrab-avaylashi, axborotdan ongli ravishda foydalanishi va milliy qadriyatlariga sodiq bo'lishi lozim. Bu esa barkamol avlodni tarbiyalash va jamiyat barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun –2016-yil.

**CONTINUING EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE,  
INNOVATION, AND TRANSFORMATION.  
International online conference.**

Date: 29<sup>th</sup> April-2026

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008yil – 45– 60-bet.
3. Mirziyoyev.Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent, 2021 yil –20–35-bet.
4. Ma'naviyat asoslari va milliy g‘oya bo‘yicha o‘quv qo‘llanma –Toshkent, 2020 – 2024 y.



**International Conferences**  
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

